



**O‘QITUVCHINING INNOVATSION FAOLIYATI VA PEDAGOGIK
MAHORATNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY
TENDENSIYALARI**

Quvatova Gulhayo Jalolovna

Safarova Sitora Rustamovna

*Termiz davlat pedagogika institute Boshlang‘ich ta‘lim ikkinchi oliy ta‘lim yo‘nalishi
talabasi*

Anotatsiya. Mazkur maqolada ta‘lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari yoritilgan. Mustaqil fikrlash shaxsning intellektual rivojlanishida, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda hamda zamonaviy jamiyat talablariga moslashishida muhim omil sifatida qaraladi. Shu bois, pedagogik jarayonda innovatsion metodlardan foydalanish, o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etish va ularda muammoli vaziyatlar orqali tahliliy yondashuvni shakllantirish mexanizmlari ochib berilgan. Maqolada milliy va xalqaro tajribalar asosida mustaqil fikrlashni rivojlantirishning samarali texnologiyalari tahlil qilinadi.

Аннотация. В данной статье раскрываются теоретические и практические основы формирования навыков самостоятельного мышления у учащихся в системе образования. Самостоятельное мышление рассматривается как важный фактор интеллектуального развития личности, раскрытия её творческих способностей и адаптации к требованиям современного общества. Особое внимание уделяется использованию инновационных методов, организации самостоятельной деятельности учащихся и формированию аналитического подхода через проблемные ситуации. В статье анализируются эффективные технологии развития самостоятельного мышления на основе национального и международного опыта.

Anotation. This article explores the theoretical and practical foundations of developing students' independent thinking skills within the educational system. Independent thinking is viewed as a crucial factor in intellectual development, fostering creativity, and enabling adaptation to the demands of modern society. The research highlights the importance of innovative teaching methods, the organization of independent student activities, and the development of analytical approaches through problem-based learning. The article also examines effective technologies for enhancing independent thinking, drawing on both national and international experiences.



Kalit soʻzlari: Taʼlim tizimi, mustaqil fikrlash, pedagogik texnologiyalar, ijodkorlik, oʻquvchi faoliyati, innovatsiya, intellektual rivojlanish, muammoli taʼlim.

KIRISH. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida taʼlim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri – oʻquvchilarda mustaqil fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishdir. Chunki mustaqil fikrlash shaxsning ijtimoiy faolligini, intellektual salohiyatini, ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishga xizmat qiladi. Jahon miqyosida inson kapitaliga qoʻyiladigan talablarning ortib borayotgani, oʻquvchilardan faqat tayyor bilimlarni emas, balki mavjud bilim asosida yangi yechimlarni topa olish, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ijodiy yondashish qobiliyatini talab qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim islohotlarining markazida ham mustaqil fikrlovchi, tashabbuskor, masʼuliyatli yoshlarni tarbiyalash masalasi turibdi. Oʻzbekiston Respublikasining “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni (2020-yil 23-sentabr, yangi tahrirda)da taʼlimning asosiy maqsadi sifatida shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uni mustaqil fikrlashga, erkin qaror qabul qilishga, jamiyatda munosib oʻrin topishga tayyorlash belgilangan. Shuningdek, mazkur hujjatda oʻquvchilarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni kreativ fikrlash va innovatsion faoliyatga yoʻnaltirish taʼlim jarayonining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida koʻrsatib oʻtilgan.

Davlat rahbari tashabbusi bilan qabul qilingan “Oʻzbekiston Respublikasida taʼlim-tarbiya tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” (2019-yil, Prezident qarori PQ–5847)da ham taʼlim tizimining sifat jihatidan yangi bosqichga koʻtarilishi, oʻquvchilarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga oʻrgatish, ijodiy salohiyatini rivojlantirish asosiy vazifa qilib belgilangan. Ushbu konsepsiyada taʼlim jarayoniga ilgʻor pedagogik texnologiyalarni joriy etish, interaktiv usullar asosida darslarni tashkil etish, muammoli taʼlim elementlarini keng qoʻllash orqali oʻquvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish zarurligi alohida taʼkidlangan. Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga moʻljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham yoshlarning intellektual salohiyatini yuksaltirish, taʼlimda kreativ va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, mustaqil qaror qabul qila oladigan shaxslarni tarbiyalash maqsadi ustuvor yoʻnalishlardan biri sifatida belgilangan. Mazkur strategiya taʼlim jarayonini faqat bilim berishga emas, balki kompetensiyalarni shakllantirishga qaratishni, bunda mustaqil fikrlash eng muhim kompetensiya sifatida qaralishini koʻzda tutadi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi Xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ni



Learning and Sustainable Innovation

tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonida o'quvchilarni XXI asr ko'nikmalariga – tanqidiy va kreativ fikrlash, axborot bilan ishlash, kommunikativ va kooperativ kompetensiyalarni egallashga tayyorlash vazifasi ilgari surilgan. Mazkur hujjat asosida o'quv jarayonini shaxsga yo'naltirish, o'quvchini bilim oluvchi ob'ekt emas, balki ta'lim jarayonining faol sub'ekti sifatida shakllantirishga qaratilgan yondashuv ustuvor deb belgilandi. Mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid masalalar xalqaro hujjatlarda ham o'z aksini topgan. Xususan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Ta'lim – 2030" global kun tartibi hamda BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida (SDGs, 4-maqсад – "Barchaga sifatli ta'lim") o'quvchilarda tanqidiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish ta'lim sifatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan. Shu asosda, bugungi kunda pedagogika fani oldida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladigan samarali metod va texnologiyalarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa sifatida turibdi. Ayniqsa, boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichida mustaqil fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarning keyingi intellektual va ma'naviy kamoloti uchun poydevor vazifasini bajaradi. Bu esa pedagoglardan yangi yondashuvlar, innovatsion metodlar va ta'limiy muhitni shakllantirishda puxta tayyorgarlikni talab qiladi[13].

O'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bugungi ta'lim tizimining strategik vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon, birinchi navbatda, ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda tashkil etilishi bilan belgilanadi. Mustaqil fikrlash inson shaxsining intellektual va ijodiy rivojlanishida asosiy mezonlardan biri bo'lib, u nafaqat bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, balki hayotiy muammolarni hal qilishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik adabiyotlarda mustaqil fikrlash "o'quvchining muayyan vaziyatda tayyor bilimlarga to'liq tayanmagan holda yangi g'oya, yechim yoki qaror qabul qilish qobiliyati" sifatida izohlanadi (Qodirov B., 2019). Mustaqil fikrlash jarayoni o'quvchidan mantiqiy izchillik, tahliliy yondashuv, sabab-oqibat aloqalarini anglash, tanqidiy qarash va ijodiy tafakkurni talab etadi. Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshiruvchi, ularni mustaqil izlanishga undovchi metodlar qo'llanishi dolzarbdir[14].

Mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik asoslari. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarda funksional savodxonlik, tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy kompetensiyalardan biri sifatida belgilangan



(Davlat ta'lim standarti, 2020). Bunda, ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab mustaqil fikrlashning elementlarini bosqichma-bosqich singdirib borish muhim hisoblanadi. Chunki bu davrda bolaning tafakkuri shakllanib, bilimga bo'lgan qiziqishi kuchayadi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda metod va texnologiyalar. Pedagogik tajribada mustaqil fikrlashni shakllantirishda interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir. "Aqliy hujum", "Baliq skeleti", "Venn diagrammasi", "Debat" kabi metodlar o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal etish, turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish, xulosaga kelish ko'nikmalarini rivojlantiradi (To'xtaxo'jayev R., 2021). Shu bilan birga, loyihaviy ta'lim, tadqiqot faoliyati, kichik guruhlarda ishlash, muammoli vaziyatli darslar ham o'quvchilarni mustaqil izlanishga va ijodkorlikka undaydi. Masalan, loyiha usulidan foydalanilganda o'quvchilar o'zlari tanlagan mavzu yuzasidan izlanish olib boradilar, ma'lumot yig'adilar, tahlil qiladilar va xulosalar chiqaradilar. Bu jarayonning har bir bosqichi mustaqil qaror qabul qilishni talab etadi. Natijada o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki ijodiy yondashuv, muammoni turli burchaklardan ko'ra olish qobiliyati shakllanadi[12].

Tanqidiy fikrlash orqali mustaqillikka erishish. O'zbekistonlik olimlardan A. Xoliqovning (2020) tadqiqotlarida ta'kidlanishicha, o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish ularning mustaqil bilim olish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlash – bu faqatgina shubha qilish yoki tanqid etish emas, balki axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, ishonchlilikni tekshirish va asosli qarorga kelish demakdir. Shu sababli ta'lim jarayonida muammoli savollar, ochiq topshiriqlar, munozarali vaziyatlardan keng foydalanish zarur.

Milliy qadriyatlar asosida mustaqil fikrlashni shakllantirish. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish jarayoni milliy g'oya va qadriyatlarga tayangan holda amalga oshirilishi ta'lim samaradorligini yanada oshiradi. Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi allomalarning ilmiy va ma'rifiy qarashlari ham mustaqil fikrlashning ildizlarini tashkil etadi. Masalan, Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yoshlarni bilim olishga, tafakkur qilishga, mustaqil qarashga undash orqali millat taraqqiyotiga erishish mumkinligini ta'kidlagan. Bugungi kunda ham Avloniy merosi yosh avlodni mustaqil va tanqidiy fikrlashga undashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Amaliy tajribalar. O'zbekiston maktablarida so'nggi yillarda olib borilayotgan pedagogik innovatsiyalar, jumladan STEAM-ta'limni joriy etish, "Bir million dasturchi" loyihasi, xorijiy tillarni o'qitishni kengaytirish kabi tashabbuslar ham o'quvchilarning mustaqil fikrlash va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan.



Bunday yondashuvlar o'quvchilarda nafaqat aniq fanlarga oid bilimlarni, balki mantiqiy fikrlash, muammoni hal etish va yangi g'oyalar yaratish qobiliyatlarini ham shakllantiradi.

Psixologik-pedagogik omillar. Mustaqil fikrlashni rivojlantirish jarayonida ta'limiy muhit, o'qituvchining shaxsiy yondashuvi, oilaviy va ijtimoiy tarbiya ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchi o'zining dars jarayonida beradigan savollari, topshiriqlari, muloqot uslubi bilan o'quvchini mustaqil fikrlashga undashi mumkin. Oila va jamiyat esa farzandlarning erkin fikr bildirishiga sharoit yaratishi, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashi zarur. Mustaqil fikrlashni shakllantirish o'quvchilarning bilim olishini chuqurlashtiradi, ularni ijtimoiy hayotga faol qo'shilishiga tayyorlaydi, shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladi. Pedagogika fanida bu jarayonni samarali tashkil etish uchun ilmiy asoslangan metodlar, innovatsion texnologiyalar va milliy-ma'naviy qadriyatlarni uyg'unlashtirish talab etiladi. O'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogika nazariyasi va amaliyotining eng dolzarb masalalaridan biridir. Bugungi ta'lim jarayoni nafaqat bilimlarni yetkazib berishni, balki o'quvchining shaxsiy qiziqishlari va intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni ko'zda tutadi. Shu sababli ta'limda faollik, mustaqillik va ijodkorlikni rag'batlantiruvchi usullar muhim ahamiyat kasb etadi[11].

Xalqaro va milliy hujjatlarda mustaqil fikrlash masalasi. Xalqaro maydonda, xususan, UNESCO tomonidan ilgari surilgan "Ta'lim – 2030" dasturida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim sifatining asosiy mezoni sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasida ham bu borada bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi farmoni hamda 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishni ta'lim jarayonining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilaydi.

Mustaqil fikrlashning ijtimoiy-pedagogik mohiyati. Mustaqil fikrlash shaxsni jamiyatga faol integratsiya qiluvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'quvchi mavjud stereotiplarga ko'r-ko'rona ergashmaydi, balki yangi g'oyalarni ishlab chiqadi, hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qiladi. Bu esa o'z navbatida, yoshlarning ma'naviy barkamolligi, intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini oshiradi. Shu nuqtai nazardan, mustaqil fikrlashning shakllanishi milliy taraqqiyot va jamiyat rivojlanishining muhim sharti hisoblanadi.

Metodik yondashuvlar. O'zbekistonlik olimlardan A. Abduqodirov, M. Yo'ldoshev



va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy ishlanmalarida ta'kidlanishicha, mustaqil fikrlashni rivojlantirish uchun o'quvchilarni muammoli vaziyatlarga duch keltirish, ularga ochiq savollar berish, izlanish topshiriqlari berish samarali natija beradi. Masalan, muammoli ta'lim metodida o'quvchilarga tayyor bilim emas, balki yechimni o'zlari topishi uchun vaziyatlar taklif etiladi. Bu jarayon o'quvchidan mantiqiy tafakkur, xayoliy tasavvur va ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Innovatsion texnologiyalar orqali mustaqil fikrlashni rivojlantirish. Bugungi kunda o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), elektron resurslar va raqamli platformalardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Onlayn ta'lim resurslari, masofaviy o'quv dasturlari va multimedia materiallari o'quvchilarni mustaqil o'rganishga, axborotni tanlab olishga va tahlil qilishga undaydi. Xususan, E-darslik, Kundalik.com, Ziyonet kabi platformalar o'quvchilarning bilim olishdagi faolligini oshirib, ularni mustaqil axborot izlashga yo'naltiradi.

Mustaqil fikrlash va ijodkorlikning uyg'unligi. Mustaqil fikrlash faqat mavjud bilimni takrorlash yoki qayta ishlash emas, balki yangi g'oyalar yaratish, ijodiy yondashuvni qo'llashni ham anglatadi. Shu sababli ijodkorlikni rivojlantirish o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning ajralmas qismi hisoblanadi. Masalan, adabiyot darslarida muallif g'oyasini tahlil qilish, o'z fikrini ifodalash, muqobil yakun yaratish topshiriqlari o'quvchilarda mustaqil va ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Matematika va tabiiy fanlarda esa bir masalaga turlicha yechim topish, modellashtirish, tajriba o'tkazish orqali mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari mustahkamlanadi[10].

Pedagog shaxsining roli. Mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qituvchining shaxsiy namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Pedagogik tajribalarda ko'rsatilishicha, o'quvchi o'qituvchining savollariga javob berar ekan, faqat tayyor bilim emas, balki o'z fikrini erkin bayon etishga harakat qiladi. O'qituvchi o'quvchini rag'batlantirsa, uning tashabbuslarini qadrlasa, bu jarayon yanada samarali kechadi. Shu bois, zamonaviy pedagog shunchaki bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Xalqaro tajriba. Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur ta'lim tizimlari o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribaga ega. Masalan, Finlyandiya o'quvchilar o'quv jarayonining markazida turadi va ular uchun amaliy mashg'ulotlar, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari asosiy metod sifatida qo'llaniladi. Janubiy Koreyada esa texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilar mustaqil



izlanishga, yangi g'oyalar ishlab chiqishga jalb qilinadi. Bu tajribalarni O'zbekiston ta'lim tizimiga moslashtirish o'quvchilarda mustaqil fikrlashni yanada rivojlantirish imkonini beradi.

Ijtimoiy muhit va oilaning ta'siri. Mustaqil fikrlashni shakllantirish faqat maktab bilan cheklanmaydi. Oilaviy muhit, ijtimoiy sharoit, do'stlar davrasi ham bolaning fikrlash qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi. Agar ota-ona farzandining erkin fikr bildirishiga sharoit yaratib bersa, uning qarashlarini qadrlasa, bu bolaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois ta'lim muassasalari bilan bir qatorda oilaviy tarbiyani ham mustaqil fikrlashga yo'naltirish dolzarb vazifalardan biridir.

O'zbek olimlarining qarashlari. Mustaqil fikrlash masalasi ko'plab o'zbek olimlarining tadqiqotlarida keng yoritilgan. Jumladan, Abdulla Avloniy yoshlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish millat kelajagi uchun muhim ekanini ta'kidlab, "Fikri mustaqil yoshlar – millatning eng katta boyligidir" deya qayd etadi. Shuningdek, M. Yo'ldoshev, R. To'xtaxo'jayevlarning ilmiy ishlanmalarida mustaqil fikrlashni shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish, muammoli ta'lim va ijodiy topshiriqlarning o'rni alohida ta'kidlangan[9].

Umuman olganda, mustaqil fikrlashni shakllantirish jarayoni pedagogik, psixologik va ijtimoiy omillar uyg'unligida samarali kechadi. Bu esa o'quvchilarda faqat bilim emas, balki hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantirib, ularni jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan yetuk shaxs darajasiga olib chiqadi.

XULOSA

Ta'lim tizimida o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Mamlakatimizda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va Prezident qarorlari mazkur yo'nalishda kompleks islohotlarni amalga oshirish uchun zarur huquqiy va tashkiliy asoslarni yaratib bermoqda. Xususan, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega yoshlarni tarbiyalash orqali jamiyatda erkinlik, ijodkorlik va innovatsion tafakkurni rivojlantirish mumkin. Boshlang'ich va o'rta ta'limda interfaol metodlardan foydalanish, ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan topshiriqlar, mustaqil loyihalar, tanqidiy tahlil mashqlari va ijodiy yozuv ishlari orqali o'quvchilarda mustaqil xulosa chiqarish, o'z fikrini asosli himoya qilish, turli qarashlarni qiyosiy tahlil etish ko'nikmalari shakllantirilmoqda. Shuningdek, o'quvchilarni milliy qadriyatlar va zamonaviy ilmiy bilimlar uyg'unligida tarbiyalash mustaqil fikrlashni yanada kuchaytiradi. Mustaqil fikr egasi bo'lgan shaxs jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etadi, vatanparvarlik va ma'naviy barkamollik sifatlarini o'zida mujassam etadi. Shu boisdan, mustaqil fikrlashni shakllantirishga qaratilgan pedagogik



texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish zarur. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish — nafaqat ularning shaxsiy intellektual salohiyatini oshirish, balki milliy taraqqiyot va ma'naviy yuksalishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu masala ustida tizimli ish olib borish pedagog va psixologlarning asosiy vazifasiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasi bo'yicha Farmonlari va qarorlari. – Toshkent, 2021–2023.
3. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun. – Toshkent, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida Nizom” qarori. – Toshkent, 2021.
5. Avloniy, A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.
6. Qodirov, Q. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Fan, 2019.
7. Yo'ldoshev, J., & Hasanboyeva, O. *Pedagogika*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2015.
8. To'xtayev, B. *Ta'lim jarayonida mustaqil fikrlashni shakllantirishning innovatsion texnologiyalari*. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
9. Xo'jamurodova, F., & Xolova, M. (2024). OILAVIY MUNOSABATLAR MUAMMOSINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK ASOSLARI. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 11, pp. 63-66).
10. Shavkatovna, X. M. (2023). DEVELOPMENT OF HEALTHY THINKING IN STUDENTS. *Academia Repository*, 4(10), 90-94.
11. Shavkatovna, X. M., & Akbarovna, N. D. (2024). GENDER YONDASHUV ASOSIDA TALABA-QIZLARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 3(35), 494-498.
12. Saydulloyevich, Ochilov Y., and Xolova M. Shavkatovna. "Scientific Activity and Spiritual Heritage of Imam Ghazali." *European Scholar Journal*, vol. 3, no. 6, 10 Jun. 2022, pp. 19-22.
13. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, X. M. (2022). Scientific activity and spiritual heritage of Imam ghazali. *European Scholar Journal*, 3(6), 19-22.
14. Saydulloyevich, O. Y., & Shavkatovna, K. M. (2021). Developing Healthy Thinking In Students As A Pedagogical Problem. *European Journal Of Life Safety And Stability (2660-9630)*, 12, 424-429.